



## SINONIMLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy  
tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi  
2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11124741>

### ARTICLE INFO

Received: 4<sup>th</sup> April 2024

Accepted: 6<sup>th</sup> May 2024

Published: 7<sup>th</sup> May 2024

### KEYWORDS

*antonim, sinonim, paronim,  
qo'shimcha, frazeologiya*

### ABSTRACT

*Badiiy asarlarda sinonimlarni qo'llash, nutqning  
jozibadorligini oshiradi. Ularning leksik jihatdan qanday  
ma'noni bilish bilan birgalikda morfologik xususiyatlarini  
ham bilish har bir o'quvchi uchun juda muhim.*

Lug'aviy birlikning semantik tahlilida, ular (lug'aviy birliklar) leksik semantika-semasiologiya tadqiq manbaiga aylanadi. Bunda so'zning tushuncha (signifikat) va borliqdagi atalmish (denotat)ga munosabati o'rganiladi. Semasiologiyada so'zning semantik xususiyati - bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik, umumiy va xususiy, mavhum va muayyan, bosh va hosila, to'g'ri va ko'chma ma'nolari tekshiriladi. Bunda asosiy e'tibor so'zning semantik strukturasi, so'z ma'nolari tipi va ularni ajratish mezoniga, -so'z ma'nolarining o'zgarishi va taraqqiyoti, so'zning ma'nosini yo'qotishi va grammatik fonnantga aylanishi - desem antizatsiya hodisasiga qaratiladi. Funktsional yondashuvda so'zning nutqda voqelanish jarayonidagi roli, shuningdek, boshqa lisoniy sath birliklari voqelanishiga, ular umumiy ma'nolarining parchalanishiga qo'shgan "hissasi" tekshiriladi. Masalan, odamcha so'zida odam leksemasi -cha morfemasining "kichraytirishkam sitish" ma'nosini qizcha so'zidagi "kichraytirish-erkalash" ma'nosidan farqlagan, morfologik sath birligi bo'lgan -cha morfemasining "kichraytirish" umumiy ma'nosini parchalab, uning birini ikkinchisidan ajratgan. Leksikologiya leksikaga til tizimidagi ichki sistema sifatida qaraydi. Shuningdek, o'zaro ma'noviy umumiylikka ega bo'lgan lug'aviy birlik yanada kichik, ichki tizimcha sifatida qaraladi. Shu asosda katta va kichik, ichki tizimlarning pog'onali, bir-birini tashkil etuvchilik munosabati ochiladi. Masalan, olma, o'rik, nok kabi ho'l meva nomi bir tizimni tashkil etadi. Sabzavot nomi boshqa bir tizimni tashkil qiladi. Ular yuqoriroqda yana birlashadi - kichik tizim chaldan tashkil topgan "meva-sabzavot nomi" tizimini tashkil qiladi va umumlashtirish yuqoriga qarab davom etaveradi. <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Sayfullayeva R, Mengliye B, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova M Hozirgi O'zbek adabiy tili TOSHKENT 2010

So'zlar ma'no munosabatiga zid ma'noli, uyadosh, butun-bo'lak, tur-jins munosabatidagi so'zga shakl munosabatiga ko'ra shakldosh va talaffuzdoshga bo'linadi.

*Sinonim* so'zi grekchadna olingan bo'lib, "bir nom" degan ma'noni anglatadi. So'zlarning ma'nolari bir-biriga juda ham yaqin bo'ladi lekin yozilishi boshqacha bo'lgan so'zlarga sinonim so'zlar deyiladi. Tilda bir so'z bir ma'noni anglatishi mumkin bir necha so'z ham bir ma'noni anglatadi. Masalan: yuz, bet, aft, chehra, oraz, ruxsor so'zlarining ma'nolari bir xil faqat bu so'zlar uslubiy jihatdan bir-biridan farq qiladi bularning ma'nolari bir xil bo'lgani bilan ularni har doim bir-birlarining o'rinlarida qo'yib ishlatolmaymiz. Birisi ijobiy ma'noda ishlatilsa birisi salbiy ma'noda ishlatiladi yuz so'zi esa bular ichida neytar hisoblanadi uni ikki xil holatda ham qo'llashimiz mumkin. Sinonimk qatorni so'zlar, iboralar, qo'shimchalar(shakl, so'z yasovchi) hosil qilishi mumkin.

So'z: gapirmoq, shivirlamoq, baqirmoq, bo'kirmoq, to'ng'illamoq, ming'irlamoq, vaysamoq, javramoq.

So'z yasovchi: -li, -dor, -mand, ba, bo, ser

Shakl yasovchi: -chi, -kash, -shunos

Ibora: Dunyoga kelmoq-tavallud topmoq: boshi ko'kka yetmoq-og'zining tanobi qochmoq. Leksikologiyada faqat leksik (lug'aviy) va frazeologik sinonimiya o'rganiladi. Tilshunos olimlar so'zdagi ma'no xususiyatini ko'zda tutib, sinonimga turlicha ta'rif beradi. Sinonimning mohiyatini to'g'ri tushunish uchun ikki hodisani bir-biridan farqlash lozim: - tushuncha va so'z, uning o'zaro munosabati; - so'z va uning ma'nolari, har bir so'zning ma'no qirrasini. Tushuncha predmet, belgi, voqea, hodisa, harakat haqida kishining tasavvuri bo'lib, so'z - uning tilda namoyon bo'lishi. Tushuncha so'zga, so'z esa tushunchaga to'la ravishda mos kelavermaydi. Masalan, yuz, aft, bashara, chehra so'zi bir tushunchani bildiradi, ammo ma'nosi boshqa-boshqa. Ma'nosi bir xil so'zning bittasi tiida yashaydi, boshqasi iste'moldan chiqib ketadi. So'z tushunchaning hamma tomonini qamrab ololmaydi, balki uning mohiyatini va muhim tomonini aks ettiradi. Tushunchaning boshqa tomoni va xususiyati o'zga so'z bilan ifodalanadi.<sup>2</sup> Sinonimlar qo'shimcha ma'no anglatish anglatmasligiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi.

a) ma'noviy sinonim

b) to'liq sinonim

Agar asos ma'no ham qo'shimcha ma'no ham bir-biriga to'g'ri kelsa, to'liq sinonim masalan: huquqshunos-yurist bir tilning o'zidagi so'zlar to'liq sinonim bo'la olmaydi uni bir-biridan ozgina farqi bo'ladi uslubiy jihatdan.

Agar asos ma'nosi bir xil bo'lib qo'shimcha, ma'nolari boshqacha bo'lsa, uslubiy jihatdan bir-birining o'rnida qo'llab bo'lmasa ularni ma'noviy sinonim deymiz. Masalan nam, ho'l, shalabbo. Sinonimlik hodisasi faqat bir turkum doirasidagina bo'ladi. Sinonimlar har xil shaklda bo'ladi. Biz ularni ma'nosiga qarab bilishimiz mumkin. Sinonimlar bizning nutqimiz go'zal qilish uchun kerak bo'ladi masaln biz aynan bir so'zning o'zinin takrorlayversak, bizni tinglayotgan odam tez zerikib qoladi shu bir so'zni boshqacha sinonim so'zlar bilan birga foydalansak bizning

<sup>2</sup> Mengliyev B, Xoliyorov O' O'zbek tilidan universal qo'llanma Toshkent-2008

nutqimizda takrorlash holatlari kuzatilmaydi. Badiiy adabiyotda ham sinonimlar bizga juda ham kerak bo'ladi yozuvchi sinonim so'zlar vositasida insonlarning xarakterini aniq va jozibali qilib ko'rsatib berishadi. So'zlovchi o'zining kayfiyatini va suhbatdoshiga bo'lgan munosabatini shu sinonim so'zlarni qo'llash orqali ko'rsatib beradi. Sinonim so'zlarni o'rinsiz ishlatish orqali uslubiy jihatdan juda ham ko'p xatoliklar kuzatiladi. Shuning uchun sinonim so'zlardan foydalanayotganimzda juda ham e'tiborli bo'lishimiz kerak bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mengliyev B, Xoliyorov O' O'zbek tilidan universal qo'llanma Toshkent-2008
2. Abdullayev F A O'zbek tilining Xorazm shevalari Toshkent-1961
3. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova M Hozirgi O'zbek adabiy tili TOSHKENT 2010
4. Sapayev Q Hozirgi o'zbek til TOSHKENT – 2009
5. Irisqulov M T Tilshunoslikka kirish

